

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI
“SHARQ MUSIQASI” FAKULTETI
“XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK” KAFEDRASI

AXMEDOV ABBOS AZIMOVICH
“MUSTAFO BAFOYEVNING QASHQAR RUBOBI VA
ORKESTR UCHUN KONSERTINING TAHLILI ”

“5150700-Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari)” ta'lim yo'nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:
professor v.b.B.Mirpayozov

Toshkent-2017

MUNDARIJA

	KIRISH	
I BOB	Mustafo Bafoyev haqida	
1.1	Mustafo Bafoyevning kompozitorlik faoliyati	
1.2	Mustafo Bafoyevning o'zbek musiqasi hayotida tutgan o'rni	
II BOB	Mustafo Bafoyevning “Qashqar rubobi va orkestr uchun konserti”ning tahlili	
2.1	Mustafo Bafoyevning “Qashqar rubobi va orkestr uchun konserti”ning ijrosi ustida ishlash	
2.2	Konsertni ijro qilish uchun kerak bo'ladigan mashqlar hamda konsertda foydalanilgan musiqiy atamalarning izohi	
	Xulosa	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Musiqiy ta'lim tizimida cholg'ularda o'qitish kundan – kun rivojlanib, yangilanib yanada kengroq imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Buning asosiy omillarini ijrochilik taraqqiyoti, kompozitorlik va bastakorlik ijodiyotining yuksalishi, ta'limning yangi innovatsion va axborot texnologiyalari bilan ta'minlanishi, hamda yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalarining yaratilishi bilan bog'lash mumkin.

Ayniqsa Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin musiqa va san'at, xususan bu sohalarning ta'lim tizimini isloh qilish, uning mazmun – mohiyatini tubdan yangilash, zamonaviy texnologiyalar, vositalar bilan ta'minlash davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasida “Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi – yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda” – degan fikrlari musiqiy ta'lim mutaxassislari, o'qituvchi-murabbiylarning ham sohani yanada takomillashtirish, o'qitishning sifat darajasini ko'tarish, samaradorligini oshirishga da'vat etadi. Darhaqiqat bugungi globallashuv jarayonlarining jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olayotgan bir paytda o'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, shuningdek ular shuurini ezgulik bilan o'stirishda musiqiy tarbiyaning, musiqiy ta'limning ahamiyati o'ziga xos. Zero, bugun mamlakatimizda dunyodagi eng mukammal ko'rinishidagi musiqiy ta'lim tizimi barpo etilgan. Bolalar musiqa va san'at maktablari,

san'at va madaniyat kollej, litseylari, nihoyat oliy ta'lim muassasalari doimiy faoliyat olib borayotganligi fikrimizning dalilidir.

O'zbek musiqa merosi o'zining teran ildizlari bilan milliy qadriyatlarimizning asoslaridan biri bo'lib kelgan. Azal-azaldan ular boy va ko'hna tarixiy ahamiyatga egaligi bilan harakterlanadi. Ular xalqimizning o'tmishini ohanglarda mujassam etgan zabardast ko'rinishdagi musiqiy asarlar, sehri ohanglardagi dostonlardir. Shu bois benazir musiqiy merosimizning shakllanishi va rivojlanish jarayonida, xalqimizga xos bo'lgan milliy urf-odatlar asos bo'lib xizmat qilgan desak mubolag'asiz bo'ladi. Milliylik kasb etganlari esa, og'izdan-og'izga o'tib avlodlardan-avlodlarga singib o'tib kelgan. Pirovardida, xalqimizning amaliy merosida an'ana shakliga kirgan. Milliy musiqiy an'analarimiz o'zining badiiy va estetik qiymatini hozirgi kungacha saqlab kelmoqda.

"Bastakor" — (forscha – bog'lanish, bog'lov, mashg'ulot, ish) an'anaviy, mumtoz musiqa asarlari muallifi. Musulmon Sharqida musannif, mulahhin, ohangsoz kabi atamalar bilan tanilgan. Odatda bunday san'atkorlar o'z faoliyatida ijrochi-xonanda, ko'proq sozandalikni uzviy bog'lashgan. Abu Nasr Forobiydan boshlab Darvesh Ali Changiy va boshqa allomalarning musiqiy risolalari, Abdulfaraj Isfaxoniy ("Kitob ul — ag'oni"), Aruziy Samarqandiy ("Chohor maqola"), Alisher Navoiy ("Majolis ul — nafois", "Holati Pahlavon Muhammad"), Davlatshoh Samaraqandiy ("Tazkirat ush — shuaro"), Zayniddin Vosifiy ("Badoe' ul — vaqoe'"), Zahiriddin Muhammad Bobur ("Boburnoma") va boshqalarning asarlarida o'nlab bastakorlar haqida tarixiy-ta'rifiy ma'lumotlar mavjud.

Bastakorlik san'ati qadimdan xalqlar ma'naviyatini yuksaltiruvchi kasb sifatida amaliyotda o'z samarasini ko'rsatib kelgan. Uni amaliyotda

shakllanish mezoni qariyb 1,4 ming yillik davrga teng bo'lib, Borbad zamonasidan boshlanadi.

Kasbiy musiqaning asosi bo'lmish bastakorlik, insoniyat hayoti kechinmalarini ohangga solib yaratuvchilik orqali ulkan musiqiy merosga va boy musiqa ilmini shakllanishiga xizmat qilgan. Bu an'ana asrlar osha avloddan-avlodga o'tib, o'zining mo'jizakorlik xususiyatini boyitib kelmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'tmish musiqashunos allomalarining bu xususdagi an'analari davom ettirish har tomonlama muhimdir. Ya'ni, mohir sozanda va xonandalar hamda bastakorlar ijrochilik an'analari, ijodiy faoliyatlari va bizga qoldirgan musiqiy merosini o'rganish zamon talabi va avlodlarning burchidir. Shu bois bo'lsa kerak, har bir davrda bu jarayon o'zining muqobil ko'rinishini hosil qilgan. Ya'ni, badiiy adabiyot namunasidami, tarixiy manba sifatidami, ommabop talqinlar shaklida yoki ilmiy-tadqiqot ko'rinishidami o'z aksini topib kelgan.

Ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik o'tgan asrning boshlaridan boshlab jadal rivojlandi. Katta-katta bastakor va sozandalar o'zbek xalq cholg'ularini rivojlantirishda samarali faoliyat olib bordilar. Natijada, bugungi kunlarga kelib cholg'u ijrochiligi o'zining rivojlanish cho'qqisiga chiqdi desak adashmagan bo'lamiz. Cholg'u ijrochiligi o'z maktabi va buning natijasida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishib kelmoqda. Bu an'analarni, bu merosni chuqur o'rganish va uni kelajak avlodga yetkazish biz yoshlarning muqaddas bur-chimizdir.

Davlatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan musiqiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirilishiga qaratilgan qarorlar hamda farmoyishlar mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviy olami va ma'naviy saviyasini yuksaltirish

yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va shu asosda musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish, bu borada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar ko'rsatilgan. Musiqa san'ati borasida amalga oshirilayotgan xayrli ishlarbolalarda kuy, qo'shiqqa, san'atga muhabbat uyg'otib, ularda cholg'uchilik va ijrochilik kabi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, shuningdek, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, ahloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirib, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi va navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi. M.Bafoyevning ijodiy faoliyati va qashqar rubobi uchun konsert asarini chuqur o'rganish va undan kelajakda rubob ijrochiligi san'atining rivojlantirish yo'lida foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari:

M.Bafoyev ijodining shakllanish jarayoni, qashqar rubobi va orkestr uchun "Konsert" asarini ijro uslublarini o'rganish va tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

Mustafo Bafoyevning qashqar rubobi uchun "Konsert" asarining yangiligi va uni tahlil qilinganligi hamda ushbu asarni ijro qilish uchun kerakli ko'nikmalarni o'zlashtirish haqidagi ma'lumotlar o'rganildi.

Tadqiqot predmeti.Mustafo Bafoyevning qashqar rubobi uchun "Konsert" asarini tahlil qilish, ijro qilish uslublari va kompozitorning ijodiy faoliyati.

Tadqiqot obyekti.Mustafo Bafoyevning qashqar rubobi va orkestr uchun konsertining tahlili


Bitiruv malakaviy ishning ilmiy ahamiyati:

Tadqiqot natijalaridan asarning ijrochiligi bo'yicha ta'lim muassasalari mashg'ulotlarini tashkil qilishda ma'ruzalar matni sifatida, shuningdek, ta'lim muassasalarida ijrochilik bo'yicha o'quv, estetik, axloqiy-ma'naviy tarbiya ishlarini olib borish jarayonida hamda konsert ijrochiligi ishlarini tashkil qilishda tadqiqot materiallaridan keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ish II bob, 4 qism, xulosava foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. MUSTAFO BAFOYEV HAQIDA



Albatta professional ijrochilikda bir asar bilan tanishishda, uni ijro qilishdan oldin, asar mohiyatini to'liq anglab yetish uchun o'sha asarning muallifini haqida, uning hayot yo'li, musiqa olamida tutgan o'rni, qanday janrlarda ijod qilganligi haqida to'liq ma'lumot olish kerakligi juda muhim bo'lgan vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan Mustafo Bafoyevning "qashqar rubobi va orkestr uchun konsert" asarini tahlil qilishdan oldin kompozitorning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berishni joiz deb topdim.

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, kompozitor, dirijyor, pedagog, Mustafu Bafoyev keksa avlod kompozitori safida serunum faoliyat olib borib, turli janrlarga murojaat etgan ko'p qirrali ijodkorlardan biri. Mustafu Bafoyev o'zbek professional kompozitorlik ijodida muayyan mavqeyga erishgan ijodkor. U O'zbekiston bastakorlari safiga yorqin, zamonaviy ohang va an'anaviy uslubiy oqimlari ta'siridagi, jozibali musiqiy asarlari bilan shahdam kirib kelgan.

“Buxoroning chekka qishloqlaridan birida, oddiy oilada katta bo'lganman. Otam hisobchi, onam dehqon edi. Bafo otamning ismi. Vafo so'zi Buxoro shevasida “bafo” deyiladi. Bizning bolalik davrimizda texnika rivojlanmagan, qishloqlarga elektr ham yetib bormagandi. Bitta amakim musiqaga qiziqardi, nay chalardi. Negadir doim “Sen musiqachi bo'lishing kerak”, deb aytardi. To'ylarda musiqasiz, hech qanaqa tayyorgarliksiz ashula kuylardim. Otamga xonanda bo'lish haqidagi istagimni bildirganimda, “Bizning avlodda san'atkor bo'lmagan. Maktabni tugatib, qishloq xo'jaligi institutiga kirasan. Agronom bo'lasan. Qara, hozir kolxozlarda agronomlarning obro'si baland”, degan. Men esa 7-sinfni tugatib, Buxoro musiqa bilim yurtiga bordim. O'shanda Ahmad Ixtiyorov rahbar edi. U kishi niyatimni eshitib, “Sen xonanda bo'lma. Hali yosh bolasan. Ovozing yoshing ulg'aygani sari o'zgarib boradi. Yaxshisi, sozanda bo'l”, degandi. Shu bilan meni g'ijjak chalish bo'limiga o'qishga olishdi. To'g'risi, g'ijjak qanday soz ekanligini bilmasdim. Sentabrda o'qishga borib, uning nimaligini ko'rdim. Qarasam, tizzaga qo'yib chalinadigan, 4 ta tori va bitta tayoqchasi bor asbob ekan. O'qishda bir yil rosa qiynalغانman. Hatto afsuslanganman ham. Chunki bu sohani tushunmasdim-da. Keyingi yili yotoqxonaga ko'chib o'tdim. O'sha yerdagi muhit menda musiqaga muhabbat uyg'otgan. Asta-sekin o'zim musiqa yoza boshladim. Faqat tortinchoqligim sabab, yozganlarimni hech kimga ko'rsatmasdim. O'qishni tugatgach, ustozlarimning yo'llanmasi bilan

Toshkent Davlat konservatoriyasiga o'qishga keldim.O'shanda to poytaxtga kelguncha poezdda g'ijjak chalib kelganim esimda.

Konservatoriyada xalq cholg'u asboblarini chalish yo'nalishida o'qib yurgan kezlarim domlamiz Mardon Nasimov musiqa yozishimni sezib qolgan. "Sen bola musiqa yozayapsan-a? Uyalmasdan ko'rsat menga", degandi o'shanda.Keyin boshqa domlalar ham musiqalarimni eshitib ko'rib, "Aslida bastakor bo'lishing kerak ekan", deyishgan.Ammo o'quv yo'nalishini o'zgartirish imkoni bo'lmagan.Bitiruv imtihonida ham o'zim yozgan musiqani chalgandim.O'qishimni tamomlagach, "Ishlang, keyin bastakorlikka o'qiysiz", deb aytishdi.Shundan so'ng Buxoro pedagogika univesitetida ishlay boshladim.Rahmatli ustozim Mardon Nasimov doim qo'ng'iroq qilib, "Qachon kelasan poytaxtga", derdi.Men esa "Domla, uylandim, ikki qizim bor. O'qishga borolmayman", deb javob berardim.Otanim qayta o'qishimga qarshi edi."Mana, oliy ma'lumotlisan.Bo'ldi, endi ishla", deyishardi.Lekin ko'nglim musiqiy asarlar yaratishni istardi.Oxiri ayolimga "Hali yoshmiz.Hozir bastakorlikka o'qib olsam, yaxshi bo'lardi", deb taklif bildirdim.U rozi bo'ldi.Shu bilan qaytadan konservatoriyaning bastakorlik yo'nalishiga imtahn topshirib, o'qishga qabul qilinganman.O'shanda yigirma yetti yoshda edim.O'qishni tugatgan yilim "Buxoronoma" degan oratoriya yozganman.O'sha asarim uchun Bastakorlar uyushmasiga a'zo bo'lganman" – deydi kompozitor.

Mustafo Bafojev 1946 – yil 10 noyabrda Buxoro viloyati Kogon tumani Ganchkash qishlog'ida, Bafo Vaxtadov (xizmatchi) oilasida tug'ildi.1953-1960 yillari umumta'lim maktabida o'qib, badiiy havaskorlik to'garagiga qatnashadi, g'ijjak chalishni o'rganadi.Musiqaga bo'lgan ishtiyoqini payqagan ustozlar unga musiqa bilim yurtida o'qishni maslahat berdilar. 1960-1964 yillarda Mustafo Bafojev Buxoro musiqa bilim yurtida, 1964-1969 yillari Toshkent davlat konservatoriyasining o'zbek xalq

cholg'ulari fakultetida g'ijjak sinfi bo'yicha dotsent O.Xolmuhamedov va dirijyorlik sinfi bo'yicha professor M.Nasimovda tahsil oldi. 1969-yili konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirgach, yosh mutaxassis Buxoro davlat pedagogika institutiga yo'llanma oladi. 1969-1970 va 1971-1972 yillari Buxoro pedagogika instituti musiqa va xonandalik kafedrasining o'qituvchisi sifatida o'zining mehnat faoliyatini boshladi. 1970-1971 yillari u harbiy xizmatni o'tadi. Bastakorlik sirlarini o'rganish maqsadida Mustafo Bafoev 1972-yilda konservatoriyaga ikkinchi marta o'qishga kirdi. Professorlar B.Giyenko sinfida kompozitsiyadan, A.Kozlovskiyda cholg'ulashtirishdan qunt bilan o'qidi va 1977 yili konservatoriyani muvaffaqiyat bilan tamomlaydi. 1979 yillarda assistant-stajerlik kurslarida kasb malakasini oshiradi.

Mustafo Bafoyev 1977 yildan Buxoro musiqa bilim yurtida musiqa nazariyasi fanlari bo'yicha o'qituvchi lavozimida ishlaydi. Ushbu bilim dargohida u dirijyorlik bo'yicha ham dars bera boshlaydi. 1979 yildan M.Bafoyev Toshkent davlat konservatoriyasining o'zbek xalq cholg'ulari kafedrasida dirijyorlik sinfi bo'yicha talabalarga dars beradi. 1980-yilda O'zbekiston radiosi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga dirijyor lavozimiga ishga taklif qilindi. Olti yildan so'ng esa ushbu jamoaning bosh dirijyori va badiiy rahbari etib tayinlandi.

1.1 MUSTAFO BAYOVENING KOMPOZITORLIK FAOLIYATI

Kompozitor Mustafo Bafoyev talabalik davridan boshlab musiqaning turli shakl va janrlarida jozibali, ohangdor musiqiy asarlar yaratib kelmoqda. Masalan: M.Bafoyevning talabalik davridayoq yaratgan torli kvarteti 1973 yili Novosibirsk shahrida ham ijro etildi. Navoiy she'rlariga ovoz va fortepiano uchun yozgan "Besh ruboiy" turkumi (1975 yil) Leningradda

o'tkazilgan yosh kompozitorlar ijodiga bag'ishlangan festivalda ijro etilib, iliq kutib olindi, yoki "Buxoronoma" (O.Halil so'zi) oratoriyasi 1978 yilda yosh kompozitorlarning tanlovida 3-darajali diplomga sazovor bo'ldi. Talabalik yillarida yozilgan birqancha asarlari ham ijro jamoalari repertuarlaridan o'rin oldi: "Shiroq afsonasi" (1974 y.) simfonik poemasi, "Bayram uvertyurasi" (1976 y.), truba uchun konsert-rapsodiyasi (1978 y.), shuningdek , p'esa, sonatina, sonata, poema, skertsolar.

Shuni aytish joizki, M.Bafoyevning musiqiy asarlari respublikamizda va boshqa mamlakatlarda o'tkazilgan festival va simpoziumlar konsert dasturlarida yangradi: Abu Ali Ibn Sino tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlangan konsert dasturida kompozitorning Ibn Sinoning ruboiylariga bastalagan yakkaxon va akapella xori uchun 7 qismli "Poema freska"(1980 yili Toshkent va Moskva), Tojikistonda o'tkazilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekada konsert dasturida shoir J.Kamol so'ziga yozgan "Do'stlik" vokal-simfonik poemasi (1981 yili), Butun ittifoq musiqa festivalida J.Kamol so'ziga yozgan "Ajab nozik" xor qo'shig'i(1983 yil mart oyida Tallin); Muso al-Xorazmiy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan konsert "Al Xorazmiy yulduzi" xoreografik miniatyura(1983 yil Moskvada); ikkinchi xalqaro musiqashunoslik simpoziumining konsert dasturida "Maqom sadolari" xor-poemasi(1983 yil, Samarqand); Armanistonda o'tkazilgan xor san'ati festivalining konsert dasturida "Buxoriya"(xalq so'zi) yakkaxon goboy, urma cholg'ular va xor uchun(1986 yili) yaratilgan; O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekada konsert dasturida T.To'la so'ziga bastalagan "Tantanali qasida-poema" (1987 yil, Ukraina); uchinchi xalqaro musiqashunoslik simpoziumi konsert dasturida kamer simfonik orkestri uchun bastalagan "Ibn Sino xotirasi" 2-simfoniyasi (1987 yil, Samarqand); Mirzo Ulug'bek tavalludining 650 yilligiga bag'ishlangan konsert "Ulug'bek burji" telebaletidan parcha(1994 yili, Samarqand); Amir Temur tavalludining

660 yilligiga bag'ishlangan konsert dasturida "Kuy va qo'shiqlar turkumi" (1996 yili, Samarqand); O'zbekiston kunlariga bag'ishlangan tadbirda "Buyuk ipak yo'li" spektakli (1997 yili, Parij). Shu spektaklning 1997 yili Samarqandda o'tkazilgan "Sharq taronalari" birinchi xalqaro musiqa festivalida; 1999 yili Toshkentda o'tkazilgan xalqaro "Ilhom XX" musiqa festivali konsert dasturida dutor va fortepiano uchun "Konsert-poema" va 2000 yilda xalqaro "Ilhom XX" musiqa festivalida fortepiano va milliy cholg'ular uchun 5 ta musiqiy manzara ("Alpomish" dostoni asosida), 2001 yili shu festival konsert dasturida ovoz, kamer orkestr, xor, zarbli asboblardan va fortepiano uchun "Zikral-Haq" nomli konsert shular jumlasidandir.

M.Bafojev dramaturglar hamkorligida Muqimiy nomidagi respublika musiqali teatri uchun musiqali drama va komediyalar yaratdi: L.Boboxonov librettosiga "Yettinchi jin" (1983); "Uzilgan torlar" (K.Amirov librettosi) (1984); "Zuldir" (A.Ibrohimov librettosi) (1985); "Radja" (T.To'la librettosi) (1985); R.Tagorning : "So'nmas alanga" (Yu. Mortsinkayavichyus librettosi) (1987); "Toshkentda tuman" (I.To'xtayev librettosi) (1988); "Sevgi nidosi" (F.Jo'rayev librettosi) (1994); A.Hidoyatov nomli teatr "Buyuk ipak yo'li" (A.Sharipova librettosi) spektakliga musiqa bastaladi (1996). 1987 yilda "Umar Hayyom" (O.Uzoqov librettosi) operasi (1994); 1998 yili esa "Ahmad al-Farg'oniy" (J.Jabborov librettosi); 1997 yili "Buxoroi Sharif" (X.Davron librettosi) teleopera- doston; 1992 yili "Nodira" (Yu.Ismatova librettosi); 1994 yili "Ulug'bek burji" (Yu.Ismatova librettosi); 1995 yili "Moziydannur" (Yu.Ismatova librettosi) telebaletlari.

M.Bafojev simfonik va vokal-simfonik janrlarida samarali ijod qilib kelmoqda. U orkestr va xor jamoalarini asarlar bilan boyitdi: "Shiroq haqida afsona" simfonik poema (1974)); "Bayram" simfonik uvertyurasi (1976); truba va simfonik orkestr uchun "Konsert-rapsodiya" (1978); "Avitsenna" nomli kamer orkestr uchun simfoniya №2 (1984); 1990 yil Hamzaga

bag'ishlangan "Shoirning hayot sahifasi" nomli 3-simfoniya; 1991 yil Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag'ishlangan "Movarounnahr" nomli 4-simfoniya; "Sug'dcha freska" (1992). Vokal-simfonik asarlardan 1983 yil xor va simfonik orkestr uchun "Hayajonli poema" cantata (T.To'la so'zi);

Mustaqillik davri mobaynida o'zbek musiqa san'ati rivojida samarali ijod qilayotgan yetakchi kompozitor M.Bafoyev "So'g'diyona" milliy cholg'ular kamer orkestri repertuarining ko'pgina asarlari yaratuvchisidir. Asosan asarlar orkestr taklifi, iltimoslariga binoan yaratilgan bo'lib, g'oyasi ko'pincha orkestr dirijori Abdurahimova Firuza Ravshanovna tomonidan belgilanadi.

Kompozitorning o'zi g'ijjak cholg'usi ijrochisi bo'lgan va shu bilan birga D.Zokirov nomidagi ansamblga ko'p yillar davomida rahbarlik qiladi. Shu bilan birga ansamblga qator asarlar yaratgan. Bu esa M.Bafoyevning milliy cholg'ular orkestrining tilini tushunishga, asar yozganda ham qiyinchiliksiz mukammal matoni kashf etishga imkon yaratadi. Asosan asarlari aniq klassik janrlar chegarasida yozilgan bo'lib, dramaturgiya jihatidan aniqlik, tuzilmalar puxtaligi alohida ajralib turadi.

M.Bafoyevning orkestr uchun maxsus yaratilgan asarlari ichida "Buxorocho" (1999), "Abadiyat" (2007) konsertlari, "Uyg'onish" fantaziyasi, "Sayohatnoma" (2005) konsert-fantaziyasi, "Chanqovuz usullari" (2000), "To'yona" (2011) asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

"So'g'dcha" pyesasi orkestr uchun yozilgan dastlabki asarlaridan bo'lib, orkestrni tanitgan ilk asarlar sarasiga kiradi.

"Buxorocho" konserti – istiqlolimiz 10 yilligiga bag'ishlangan va asosan Buxoro mavrigilaridan olingan bo'lib, kompozitor ta'kidlashicha, bu konsert orkestr tomonidan yuqori darajada ijro etilgan. Asardagi asosiy tamoyillardan biri bu cholg'u guruhlari o'rtasidagi musobaqadir. Shu bilan birga har bir cholg'u imkoniyatlari, tembri go'zalligini ochib berish, asosiy

maqsadlardan biri bo'ldi. Qismlarni bir-biri bilan birlashtirishda kompozitor polifonik rivojlovdan foydalanadi. Ammo bu yerda I. Bax polifoniyasi asosiy negizlaridan sanaladi. Kompozitor ijodi davomida milliylik, xalqchilik, oddiylikka intiladi.

“Uyg'onish” – fantaziyasi esa M. Mirzayevning “Bahor vals” asosida ikki qisimli tuzilishda yozilgan. Asosiy ladi mi minor tonalligida bo'lib, ikkala qismda ham bu lad turg'un qoladi. Faqat obrazlar, mavzular fakturaviy kontrastni nazarda tutmasak, qismlar orasidagi lirik harakter o'xshashligi katta kontrastni keltirib chiqarmaydi. Birinchi qismda asosan tabiatning ilk sadolari – yangi kun boshlanishi, qushlar sayrashi, quyoshning ko'tarilishi, bahor tongi ko'rinishi tasvirlanadi. Kompozitor temblarni g'aroyib tarzda qo'llabgina qolmay, sozlar korpusiga chertishdan iborat ritmik formulalardan foydalanadi.

Ikkinchi qism olti bo'limdan iborat bo'lib, vals mavzusining turli rivojlov talqini yoritiladi. Vals ostida 3/4 va 7/4 o'lchovlari almashadi.

Har bir asarning ahamiyatli tomoni shundaki, zamonaviy musiqa rivojida novatorlikning yaqqol ko'zga tashlanishi bilan birga dunyo professional musiqa janrlarini milliy an'analar zamirida qo'shilishidir. Har bir asar dramaturgik jihatidan mukammal bo'lib, musiqa rivoji tub negizida milliylik aniq aks etadi. Asl mavzularni qo'llash, ikki qit'a an'analarini moslashtirish, an'anaviy G'arb va Sharq mavzularini yoritish, ularni yana bir xotirlash, yangicha talqinda tinglash imkoniyatini beradi.

M. BAFOYEVNING O'ZBEK MUSIQASI HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Shuni ta’kidlash kerakki, jahon hamjamiyatida munosib maqomga ega bo’layotgan Vatanimizda so’nggi o’n yillik davomida tahsinga sazovor yirik musiqiy asarlar yaratildi. O’zbek kompozitorlarining bugungi kunda jahon andozalariga mos yaratayotgan musiqiy asarlari fikrimizning dalilidir. Shunday ulug’vor ishlarni amalga oshirayotgan taniqli kompozitorlardan biri Mustafu Bafoyev. Uning Abror Hidoyatov nomli teatr aktyorlari bilan hamkorligida sahnalashtirilgan “Buyuk ipak yo’li” nomli tele-shou asarining 2001 yil iyun oyida YUNESKO tomonidan Parijdagi “ODEON” teatrida Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag’ishlab o’tkazilgan anjumanda ko’rsatilishi alohida olqishga sazovordir.

Mustafu Bafoyev o’zining turli xildagi cholg’ular uchun yozgan asarlari o’sha cholg’ularning rivojlanishida katta hissa qo’shdi. Chunki, cholg’u ijrochiligi bevosita kompozitorlar bilan bog’liq. M. Bafoyevning mashhur rubobchi, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Tohir Rajabiy uchun 1980 yilda bag’ishlab yozgan qashqar rubobi va orkestr uchun “Poema” asari ham rubob ijrochiligining rivojiga ulkan hissa qo’shib kelmoqda. Bu asar juda ko’plab qashqar rubob ijrochilari tomonidan turli xildagi xalqaro va respublika ko’rik-tanlovlarida ijro qilib kelinmoqda. Bu ham M. Bafoyevning aynan qashqar rubob ijrochiligidagi o’rni beqiyos ekanidan dalolat beradi.

Shu o’rinda yana bir ma’lumotni ta’kidlab o’tishni joiz deb topdim. Mustafu Bafoyev mohir kompozitor bo’lishi bilan birga mahoratli dirijor hamdir. U o’tkir zehni va kuchli xotirasi, orkestrning koloritini chuqur his qilishi o’laroq o’ta murakkab partituralarni ham (barcha unsurlari bilan) qisqa vaqt ichida o’zlashtirishga hamda xilma-xil tembrlarni yaratishga muyassar bo’ldi. M. Bafoyevning kelajakka ishonch bilan qarashi, serg’ayratliligi, orkestr ijrochilariga samimiy munosabatlari kabi insoniy fazilatlari,

qolaversa, kishiga ko'tarinki ruh bag'ishlovchi musiqa asarlari uning o'z oldiga qo'ygan badiiy maqsadlari sari samarali intilishida muhim omillardan bo'ldi.

Mustafo Bafoyevning o'ziga xos dirijorlik xususiyatlari ayniqsa orkestr jamoasi bilan o'z asarlari ustida ishlash jarayonida namoyon bo'ldi.

Mustafo Bafoyev Doni Zokirov nomidagi davlat xalq cholg'ulari orkestri dirijori bo'lgan kezlarda, ushbu orkestr bilan 600 ga yaqin asarlarni O'zteleradio arxivining "Oltin fondi"ga joyladi. Bu asarlarni barchasi albatta "Oltin fond"ning bebaho xazinasiga aylanib ulgurgan asarlardir.

Mustafo Bafoyev o'zbek san'ati rivojiga, uni jahonga tanitishda o'zining ulkan hissasini qo'shib kelayotgan san'atkordir.

**MUSTAFO BAFOYEVNING QASHQAR RUBOBI UCHUN
«KONSERT» ASARINING TAHLILI**

Keyingi paytda musiqa ijrochiligi amaliyoti yangicha tus ola boshladi, ya'ni ijrochilikda o'ziga xoslik paydo bo'lmoqda. Tarixiy, ko'hna va navqiron shaharlar va o'tmish qahramonlarini madh etuvchi asarlar ko'payib bormoqda. San'at ahlining salohiyati, yutuqlarini namoyon etishda faol xizmat qiladigan omillardan biri-bastakorlik san'atidir. U musiqa merosimizning ummoni hisoblanadi. Zamonaviy talab esa ana shu ummondan bahramand bo'lgan professional musiqa ijodkorlari, ya'ni kompozitorlar amallariga tayanadi. Zero, ijod mahsulining eng nufuzlilari zamonaviyligi hamda tarkibining murakkab va mukammalligi bilan belgilanadi.

Kompozitorning ijodiy yutug'i shundaki, uning asarlari xalqchil, milliy ohang ruhiyati bilan sug'orilgan, musiqa ijodiga bo'lgan munosabati juda keng qamrovli va mo'ldir. Janrlar qamrovi hamda ularni professional darajada umumbashariyat musiqa san'atiga mutanosib holda yaratishini alohida e'tirof etish joizdir. Shu nuqtai nazardan Mustafo Bafoyevni zamonaviy ilg'or kompozitorlar qatorida ko'rish mumkin. Zero, zamon ruhi uning asarlarida o'tmish an'analari negizida aksini topadi. O'zbek musiqa san'atining zamonaviy ommabop jarayoni ham kompozitor uchun befarq emas.

M.Bafoyevning ijodi Mustaqillik yillarida juda sermahsul bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

M.Bafoyev musiqa ijodiyotida mavjud musiqiy janrlarning deyarli barchasida qalam tebratgan, desak adashmaymiz. U qaysi yo'nalishda ijod etmasin, asarning janridan qat'iy nazar, asosiy e'tiborni nafaqat uning shakliga, balki mazmuniga qaratadi.

Uning xalq cholg'ulari uchun yaratgan turli janrlardagi asarlarini bilamiz. Shu jumladan, qashqar rubobi va orkestr uchun yozilgan konsert

asari o'ziga xos murakkab janrdagi namunadir. Bu asar M.Bafoyev ijodida cholg'u sozi uchun yaratilgan asarlar ichida salmoqli o'rin egallaydi. U ijodiy faoliyati davomidagi mazkur cholg'uga murojaat etishining asosiy sababi – o'ziga xos ohangiga ega bo'lgan noyob qashqar rubobi cholg'usini ijro imkoniyati va xususiyatlarini yaxshi bilishidir.

Mustafo Bafoyev mazkur asari bilan qashqar rubobining imkoniyati qanchalik kengligini ko'rsatib bergan. Ushbu asarni ijro etish uchun yuksak mahoratga ega bo'lish, badiiy jihatdan mukammal ijro eta olish, cholg'uni imkoniyatlarini to'la-to'kis ko'rsata oladigan darajada mohir sozanda sifatida shakllanish talab etiladi.

M. Bafoyevningqashqar rubobi uchun «Konsert» asari sonata allegro shaklida yozilgan. Asar nafaqat mukammal ijrochilik malakalari balki, yuqorida qayd etilganidek asarni mazmunan teran his etib munosib tarzda ijro talqiniga erishish darajasida shakllangan sozandachilik qobiliyatini talab etadi. Qashqar rubobida ijro etilishi lozim bo'lgan deyarli barcha shtrixlar qo'llaniladi.

Konsertning ijrochi uchun qiyinchilik tug'diruvchi juda ham ko'plab tomonlari mavjud. Agar ijrochi mazkur asarga puxta tayyorgarlik ko'rmasa bu asarni ijro eta olmaydi. Chunki, bu asarda juda ham ko'plab sanoqlarning almashinib kelishi bu ko'nikmaga ega bo'lmagan ijrochida asarning bir maromda ijro etilishidan chiqarib yuborilishiga olib keladi. 4/4, 3/4, 5/4, 7/8, 5/8, 4/8, 9/8, 6/8, 3/8, 6/16, 2/8 o'lchovlarini bir-biriga ravon ulab ijro qilish ijrochidan juda aniq ritmni his qilishni talab qiladi.

Asarning kirish qismi harakteri jihatidan harakatchan, jo'shqin **andante con moto e passione** tempida boshlanadi. Fortepianoning pastki registrdan yuqori registrdagi ikki takt ichida kichik sekunda intervalidagi tovushlarning yuqorilab va kuchayib borishi bilan boshlanadi.

Qashqar rubobida ijro uchinchi takt oldidan (ikkinchi taktning oxirgi choragidan) boshlanib, do notalarining har chorakda aktsentli 2 ta, keyin 3 ta triol, 4 ta 16 talik, 6 ta sekstol, 8 ta 32 talik sanoqda ko'payib borishi asarning yanada jo'shqin improvizatsion rivojlanishiga zamin yaratadi. Keyingi taktida 32 talik notalar har chorakda aktsent yordamida almashadi va *crescendo* orqali kuy kuchayib, fortetfortissimo (*fff*) ga keladi va birinchi mavzu tugallanadi.

Andante con moto e passione

The musical score consists of three systems. The first system shows a treble clef staff with a melodic line and a grand staff (treble and bass clefs) with a piano accompaniment. The tempo is 'Andante con moto e passione'. The first system ends with a forte 'f' dynamic. The second and third systems continue the piano accompaniment with a fortissimo 'ff' dynamic. The score features complex rhythmic patterns, including triplets and sixteenth-note runs, and includes performance markings such as 'ff', 'f', and 'Andante con moto e passione'.

Qashqar rubobida shtrixlar talabga asosan qo'llanilib, asar sekidan boshlanishiga qaramasdan pastga va yuqoriga zarb bilan, so'ngra triol shtrixda va keyingi tovushlar albatta pastga va yuqoriga tezlashib boradigan harakatda ijro etiladi.

Kompozitor M. Bafoevning "Qashqar rubobi uchunkonsert" asari tuzilishiga ko'ra mukammal badiiy ijrochilik talqiniga ega. Shu bois uni puxta o'zlashtirish talab etiladi.

Kompozitor kirish qismida avval Buxoroda uchragan «Qalandarlar zikrini» tasvirlaydi. Kuy ikkinchi marta takrorlanganida 0,5 ton pastdan boshlanadi. Kirish qismining oxiri dinamikaga boy, bog'lovchi kichik kadensiyadan iborat. Bu kadensiya keladigan asosiy bosh partiyaning ohangini oldindan qisqa ko'rsatadi va yana oldingi holatga qaytib bosh partiyaga ulanib boradi.

Bosh partiya uch chorak o'lchovida **allegretto** tempida va vals harakterni o'zida aks ettiradi. Bu partiyani ijrochi juda mayin tremoloda,

nozik, ijro etishi lozim. Kuy borgan sari variatsion rivojlanib boradi. Aynan shu bosh partiya qo'shiq hisoblanadi, shu tufayli bu asarda ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan.

Asarningdinamikasi, shtrixlari kompozitorning nazaridan chetda qolmagan, ularni xatto boyitib berishga harakat qilgan. Bosh partiyada asarni variatsion rivojlanishi kuyning turli shtrixlarda rubobning triol va fortepianoda mavzuning o'zgarishi bilanoq yangicha uslubda jo'navozlik qilishidan bilib olish mumkin. Bosh partiya pianissimoda (*pp*) tugallanib, yordamchi partiyaga o'tadi.

The image displays a musical score for a piano piece, organized into three systems. Each system consists of a treble clef staff and a grand staff (treble and bass clefs).
 - The first system begins with a piano (*p*) dynamic. The treble staff features a melodic line with a triplet of eighth notes. The grand staff accompaniment includes a bass line with triplets and a right-hand accompaniment of chords.
 - The second system is marked mezzo-piano (*mp*). It continues the melodic and accompanimental patterns from the first system.
 - The third system starts with a *poco cresc.* marking. The treble staff includes a triplet of eighth notes and a trill (*tr*). The dynamic changes to mezzo-forte (*mf*). The system concludes with a first ending bracket labeled '6'.

Yordamchi partiya o'rta tempda, mayin harakat va qalb bilan ijro etiladi. Ijrochi bu partiyada kuyni tanbur shtrixida, mayda tremoloda chalishi mumkin, Muallif bu joyda ijrochiga erkinlik bergan. Yordamchi partiya o'tgach, qayta takrorlash partiyasi keladi. Qayta ishlov partiyasi harakter jihatdan olovli jadal va tez tempda boshlanadi. Bu mavzuda qashqar rubobi va orkestr ohanglari bir-biriga almashinuvini ko'ramiz. Rubob mavzusi fortepianoga, fortepiano mavzusi qashqar rubobiga polifonik–indeks vertikalis uslubda o'tadi. M.Bafoyev qayta ishlov partiyasini kichik bog'lovchi partiya bilan ulab yordamchi partiyaning qayta ishlov partiyasi boshlanadi:

13 Moderato con moto e anima

The musical score is presented in two systems. The first system includes a vocal line (treble clef) and a piano accompaniment (bass clef). The vocal line begins with a piano (*p*) dynamic and a *cantabile* marking. The piano accompaniment also starts with a piano (*p*) dynamic. The second system continues the vocal line with a mezzo-piano (*mp*) dynamic and includes trills (*tr*) and a sharp sign (*#*) above the notes. The piano accompaniment also features a mezzo-piano (*mp*) dynamic and trills (*tr*) and a sharp sign (*#*) above the notes.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Mustafó Bafoyevning Buxoro mavzusiga bo'lgan qiziqishi tufayli bu asarda ham, ya'ni shu mavzuda Buxoro

shashmaqomining mug'ulcha ladini eshitishimiz mumkin. Eshituvchi bu partiyani uyg'ur ladi deb aytishi mumkin, ammo, aynan kompozitor bu ladni Shashmaqom pardasiga asoslanganligini qayta ta'kidlab o'tadi. Bu partiyadan keyin va nihoyat kadensiya keladi. Kadensiyada ijrochi bor kuchini berib chalishiga to'g'ri keladi. Cholg'uchi o'sha ikkitalik notalarning bir-biriga qo'shilib ketmasligiga, passajlarning dona–dona bo'lib chiqishiga va kadensiyaning bo'lmasdan, ya'ni umumiy qilib chalish kerak bo'ladi. Buni yuqori professional darajada ijro etish uchun chuqur tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Rubobchi bor mahoratini shu kadensiyada ko'rsata olishi kerak va kadensiyaning oxirida *molto crescendo* va *accelrando* (tezlatib) qilib keyingi mavzuga o'tadi. Bu mavzuni asarning uchinchi qismi yoki reprizasi desa ham bo'ladi.

27 Senza metrum (andante) CADENZA

The musical score consists of six staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a 2/4 time signature. It starts with a *ff* dynamic and a *(marcato)* instruction. The second staff continues with a *p* dynamic and a *poco cresc. e accel.* instruction, featuring several triplet markings. The third staff has a *ff* dynamic. The fourth staff has a *mp* dynamic and a *leggiero* instruction. The fifth staff returns to a *ff* dynamic. The sixth staff has a *p* dynamic and a *poco cresc. e accel.* instruction, also featuring triplet markings. The score concludes with a final note on the sixth staff.

M. Bafoyevningqashqar rubobi uchun “konsert” asarining oldingi o’rganilgan bo’laklarini keyingilari bilan bog’lash kerak bo’ladi.

18 Allegro con fuoco

The musical score is for a piece titled "Allegro con fuoco" in 5/8 time. It consists of two systems of music. The first system features a treble clef staff with a series of eighth notes, a bass clef staff with a melodic line, and a grand staff with a bass line. The second system continues with a treble clef staff featuring a dense sixteenth-note texture, a grand staff with a bass line, and a grand staff with a bass line. Dynamics include "f" and "ff". A "8va" marking is present in the first system.

Kompozitor M. Bafoyevningqashqar rubobi uchun “konsert” asari yakunida jadal sur’atdagi triol notalar 16 talik pauza belgilari bilan keladi. Bu yerda ijrochiga qiyinchilik tug’diradigan narsa shuki, 6/8 o’lchovidagi 16 talik notalar orasidagi pauzalarning cho’zimi notalar bilan bir xil hisoblab ijro qilinishida. Ya’ni ravon ijro qilish kerak. Aks holda ansamblning buzilishi va ijro sifatining yo’qolishiga sabab bo’ladi.

28 **Vivo**

ff

ff

f

Asarning yuqoridagi misolda ko'rsatilgan qismi **Vivo** tempida bo'lganiga qaramay, nozik va mag'rur mavzuni gavdalantiradi.

29

mp

mp

f

Asarning 29-raqamidan boshlanadigan mavzudagi triol notalarining ajoyib yangrashi tinglovchining yuragiga o'zgacha samimiy his-tuyg'uni uyg'otadi. Bu yerda 16 talik, triol 16 talik va 8 talik notalarning birin-ketin almashinib kelishi ijrochi va orkestr (yoki jo'rnavoz) o'rtasidagi aniq ijroni talab qiladi (yuqoridagi rasm). Xuddi shu mavzuning orkestrda qaytarilishi mavzuni yana bir bor tasdiqlab, uning bir bir vaqtda yakkaxon polifonik rivojlanishning eng nozik nuqtalarini ifodalaydi (quyidagi rasm).

The image displays two systems of musical notation. The first system consists of a vocal line (Soprano) and a piano accompaniment. The piano part features several triplet figures in both the right and left hands. The second system continues the piano accompaniment, with the right-hand part moving to a bass clef. The notation includes various rhythmic values and accidentals, characteristic of a 16th-century style.

Asaning 31-raqamidan 32-raqamigacha yakkaxonda usul ijro qilinadi. Shu vaqtda orkestrda sho'x mavzuning rivojlanishini kuzatishimiz mumkin. Bu mavzu sinkopa holatidagi usulning kirib kelishi bilan yakunlanadi.

31

f

f

8^{va}

tr

Detailed description: This musical score consists of two systems, each with three staves. The top staff of each system is a single treble clef staff, and the bottom two are a grand staff (treble and bass clefs). The key signature has one sharp (F#) and the time signature is 3/4. The first system (measures 31-33) begins with a forte (*f*) dynamic. The melody in the top staff uses accents (*>*) and trills (*tr*). The piano accompaniment in the grand staff features chords and eighth-note patterns. The second system (measures 34-35) continues the piece, with measure 33 featuring an 8^{va} trill in the right hand.

M.Bafoyevning qashqar rubobi uchun “Konsert” asarining eng murakkab ritmik qiyin qismi 32-raqamning 9-taktidan boshlanadi. Bunga o’xshash mavzu asarning boshida kelgan bo’lishi mumkin. Lekin, bu yerda farqi shundaki, avval 8 talik notalar, keyin 16 talik kvartol, 16 talik va 32 talik kvartollar ritmik teng holatda yozilgan. Ya’ni yuroqida ko’rsatilgan notalar cho’zimi har bir taktida $\frac{3}{8}$ o’lchovida almashib keladi (quyidagi rasm).

Asar mazkur qismi kichik tertsiya yuqorilab yana 3 marotaba takrorlanadi.

Kuyning ritm jihatidan mana shunday qiyin qismi tugagandan so'ng, yana yuqorida aytib o'tilgan triollarda ijro qilinadigan mag'rur mavzuning

ko'rinishi o'zgaragan holda kelishini ko'rishimiz mumkin. Bu mavzu esa o'z-o'zidan asarning koda qismi bilan bog'lanib ketadi.

36

mf

Sua

legato

Nihoyat, asarning koda qismi boshlandi. Kompozitor M.Bafoyev bu yerda asarning eng boshida keladigan mavzusini tanlagan. Lekin, farqi

shundaki, mavzu asarning bishida *Andante con moto e passion* tempida ijro qilinishi kerak bo'lsa, kodada *Presto* tempida ijro qilinadi va notalarni guruhlash birmuncha boshqacha. Hamda asar mavzusi qisqa qilib berilgan.

37 **Presto**

ff (*marcato*)

8^{va}

8^{vb}

38

Asar qashqar rubobining 4 matra kvarta oralig'idagi kuchli glissandosida 3/8 sanog'idan bir takt 2/8 sanog'iga o'tadi va yana 3/8 sanog'iga qaytib o'z nihoyasiga yetadi.

MUSTAFO BAFOYEVNING “QASHQAR RUBOBI VA ORKESTR UCHUN KONSERTI”NING IJROSI USTIDA ISHLASH

Yuqorida aytib o'tganimizdek, konsert murakkab shaklda yozilgan bo'lib, ijrochi puxta tayyorgarlik qilmasa, bu asarni ijro qilishda ancha qiynaladi. Shuning uchun men, mazkur diplom ishimda ushbu masalarga to'xtalib o'tishni lozim topdim.

Eng avvalo konsertdagi ilk jumlaning ritmik qiyinchiligi va shtrixlarini ko'rib chiqamiz.

The musical score consists of six staves. The first staff begins with a first ending bracket labeled '1' and contains a series of eighth notes with dynamic markings *f* and *ff*. The second and third staves continue with similar rhythmic patterns, with the second staff marked *ff*. The fourth staff shows a change in dynamics to *mp*. The fifth and sixth staves feature more complex rhythmic patterns, including sixteenth notes and a final *fff* dynamic marking.

Bu yerda har bir notalarning cho'zimi ravon ijro qilinishi uchun barmoqlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun ham barmoqlarning joylashuvi hamda shrtixlarning tartibiga ahamiyat berish lozim.

The musical score is a single staff in 4/4 time. It features a series of eighth notes with detailed fingering numbers (1, 2, 3, 4, 6) above them. The piece starts with a *poco cresc.* marking and ends with a *fff* dynamic marking. There are also some specific performance instructions like 'e' and '6' in brackets.

Yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan qismda qashqar rubobida bir tordan ikkinchi torga o'tuvchi funksiyani bajarish lozim. Bunda ham barmoqlarning joylashuvi o'ta ahamiyatli. Chunki, rubobchi tordan-torga o'tayotganda noto'g'ri tanlangan barmoqlari evaziga asarning sifatini buzib qo'yishi mumkin.

Quyidagi rasmda esa asarning 3/4 sanog'ida yozilgan lirik qismi ko'rsatilgan. Bunda ijrochining nozik ijro qilishi bilan bog'liq masalalar

turibdi. O'ta yuqori did va tremolo mayinligi, har bir jumlaning bir-biriga bog'lanishi asarni talqini uchun juda muhimdir.

Asarning kadensiya qismidan ko'rsatilgan rasmda barmoqlar joylashuvi ushbu passajlarning qiynalmasdan ijro qilinishini ta'minlaydi.

CADENZA

Asarning eng murakkab ritmik qiyin joylaridan biri quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



Buning asosiy qiyinchiligi ijrochidan ritmdagi aniqlikni va o'ng qo'lning yengil ishlashini talab qiladi. Barmoqlarning joylashuvi esa asarning eng boshidagidek bo'ladi.

**KONSERTNI IJRO QILISH UCHUN KERAK BO'LADIGAN
MASHQLAR HAMDA KONSERTDA FOYDALANILGAN MUSIQIY
ATAMALARNING IZOHI**

Allegro ♩=120

III II I II III
1 2 3 4 3 2 3 4

Musical score for the first exercise, consisting of five staves of music in treble clef with a key signature of one sharp (F#). The first staff includes a fingering diagram above it. The music consists of eighth and sixteenth notes with various accidentals.

1-mashq

III II I II III
4 3 2 3 4 3 2 1

Musical score for the second exercise, consisting of six staves of music in treble clef with a key signature of one flat (Bb). The first staff includes a fingering diagram above it. The music consists of eighth and sixteenth notes with various accidentals.

2-mashq

Presto

1 3 1 2 4 2 1 2 4 2 4 2 1 2 4 1 3 4 3 1 4 3 4 3 1 3 1 4 3 4 3 1 4 3 2 1

4 2 4 1 4 2 4 1 2 4 2 1 2 2 4 2 1 2 1 2 4 1 4 2 4 1 4 2 4 1 4 2 4

3 4 1 2 1 3 4 1 3 1 4 1 1 4 2 2 2 2 1 2 2 2 4 2 2 2 4 2 2 2 4 2 1 2

2 4 2 1 2 4 2 1 2 1 2 4 1 4 3 4 1 4 2 4 1 4 2 4

1 2 1 3 1 3 1 3 1 2 4 1 > > > > >

3 4 1 2 1 2 4 1 3 1 3 1 2 1 1 3 4 1 2 4 1 2 4 1

4 2 1 2 4 1 3 4 1 2 4 1 2 1 3 4 3 1 3 4 1 2 3 4 1

3-mashq



4-mashq

Bu mashqlarning rubobchining ijro mahoratini oshiribgina qolmay, balki, uning barmoqlarni boshqara olish qobiliyatini ham shakllantiradi.

ANDANTE – Italyan tilidan olingan bo’lib, “oshiqmasdan”, “oshiqmay” degan ma’noni anglatadi.

AGITATO – Italyan tilidan olingan bo’lib, “ehtiros bilan”, “hayajon bilan” degan ma’noni anglatadi. Talaffuzda *ajitato* deb o’qiladi.

ALLEGRETTO – Italyan tilidan olingan bo’lib, allegroga nisbatan sekinroq musiqiy sur’atni ifodalaydi.

ALLEGRO– Italyan tilidan olingan bo’lib, “tez” degan ma’noni anglatadi.

CON MOTO – Italyan tilidan olingan bo’lib, “harakat bilan” degan ma’noni anglatadi.

CON PASSIONE– Italyan tilidan olingan bo’lib, “ehtiros bilan”, “qiziqish bilan” degan ma’noni anglatadi. Talaffuzda *passg’one* deb o’qiladi.

CANTABILE – Italyan tilidan olingan bo'lib, “kuychan” degan ma'noni anglatadi.

DOLCE – Italyan tilidan olingan bo'lib, “mayin”, “nozik” degan ma'noni anglatadi.

GLISSANDO – Italyanchadan olingan bo'lib, “sirg'itish” degan ma'noni anglatadi. Musiqada ma'lum bir notadan boshqa bir notaga sirg'atib o'tish *glissando* deyiladi.

PIU LENTO – Italyan tilidan olingan bo'lib, “bir oz sekin, kuchsiz, cho'zib” degan ma'noni anglatadi.

LEGGIERO – Italyan tilidan olingan bo'lib, “yengil” degan ma'noni anglatadi.

LEGATO – Italyan tilidan olingan. Musiqada notalarni bo'lmasdan, ulab chalish degan ma'noni anglatadi.

MODERATO– Italyan tilidan olingan bo'lib, “o'rtacha” degan ma'noni anglatadi. Musiqada moderato atamasi o'rtacha musiqiy sur'atni anglatadi.

MARCATO– Italyan tilidan olingan bo'lib, “ajratish” degan ma'noni anglatadi. Musiqada marcato atamasi notalarni bir-biridan ajratib, bo'rttirib ijro qilishni anglatadi.

PRESTO– Italyan tilidan olingan bo'lib, “tez” degan ma'noni anglatadi. Musiqada presto atamasi tez musiqiy sur'atni anglatadi.

XULOSA

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng cholg'u ijrochiligi jadal rivojlanib bormoqda. Ayniqsa xalq cholg'ularida ijrochilik, hech kimga sir emaski, yangi yangi bosqichlarga ko'tarilmoqda. Respublikamizning eng chekka hududlarida ham, zamonaviy, barcha talablarga javob beruvchi, dunyo standartlariga javob bera oladigan musiqa va san'at maktablari, akademik litsey hamda kasb hunar kollejlari qurilib, ularning moddiy texnik bazasi yangidan rekonstruksiya qilindi.

Bu esa albatta, ta'lim tizimiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. So'ngi yillarda yosh, musiqa bilan o'z hayotini bog'lagan o'quvchi-yoshlar soni kun sayin ortib borayotgani hech kimga sir emas. Bu yoshlar malakali pedagoglardan ta'lim olmoqdalar. Hukumatimiz tomonidan yaratilgan bunday shart-sharoitlar kundan-kunga o'zining mevasini berib kelmoqda. Bunga yutimizda va xalqaro toifada o'tkazilayotgan ko'rik tanlovlarning natijalari guvohlik beradi. Albatta, shubha yo'qki, bunday shart-sharoitlarda unib o'sayotgan yoshlar, Vatanimiz nomini o'zlarining san'atlari bilan butun dunyoga mashhur qilishga qodir mutahassislar bo'lib yetishadilar.

Bugungi kunga kelib o'zbek xalq cholg'ularini dunyo taniyapti. O'z o'zidan bunga qanday erishildi degan savol paydo bo'ladiki, bu yutuqlar o'z o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Bu yutuqlarga O'zbekistonning fidokor kompozitorlari va sozandalarining ko'p yillik mehnatlari, ularning izlanishlari natijasida erishildi desak xato bo'lmaydi.

Bu erishilgan yutuqlarni asrab avaylash, uni yanada takomillashtirish biz yoshlarning muqaddas burchimizdir. Zero, o'zbek xalq cholg'ularining sehrli ohanglarini butun dunyoga taratish bizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **I.A.KARIMOV** – “YUKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH”. TOSHKENT, “MA’NAVIYAT” – 2008.
2. **A.TASHMATOVA** – “DONI ZOKIROV NOMIDAGI DAVLAT XALQ CHOLG’ULARI ORKESTRI” TOSHKENT-2015
3. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI – TOSHKENT “O’ZBEKISTON”, 1998-YIL, 48 BET
4. **A.JABBOROV** – “O’ZBEKISTON BASTAKORLARI VA MUSIQASHUNOSLARI” – TOSHKENT-2004.
5. **B.MIRPAYOZOV** – “O’ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI 1-KURS MAGISTRRLARI UCHUN DARSLIK” MATERIALLARI.
6. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “TA’LIM TO’G’RISIDA”GI QONUNI. TOSHKENT, 1997 YIL 29-AVGUST. № 463-1.
7. **SH.SH.G’ANIXONOVA** – SO’G’DIYONA: IJOD TILSIMI (TOSHKENT, “NISHON-NOSHIR” 2013)

O’zbekiston davlat konservatoriyasi “Sharq musiqasi” fakulteti

**“Xalq cholg’ularida ijrochilik” kafedrası bitiruvchi talabasi
Axmedov Abbas Azimovichning “Mustafo Bafoyevning qashqar
rubobi va orkestr uchun konserti tahlili ” bitiruv malakaviy ishiga**

TAVSIFNOMA

Ma’lumki, bugungi kunda o’zbek xalq cholg’ularida ijrochilik san’ati jadal rivojlanmoqda. Mazkur yutuqlarga O’zbekistonning fidokor kompozitorlari va sozandalarining ko’p yillik mehnatlari, ularning izlanishlari hamda bastakorlik ijodiyotining yuksalishi natijasida erishilmoqda desak mubolag’a bo’lmaydi. Shu bois mohir sozandalar hamda bastakorlarning ijodiy faoliyatlari va bizga qoldirgan musiqiy merosini o’rganish zamon talabidir.

Bitiruvchi talaba Abbas Axmedovning “Mustafo Bafoyevning qashqar rubobi va orkestr uchun konserti tahlili ” bitiruv malakaviy ishini yozishidan asosiy maqsad ham shu edi.

Bitiruv malakaviy ish II bob, 4 qism, ya’ni Mazkur ish Mustafo Bafoyev haqida ma’lumot, uning kompozitorlik faoliyati va o’zbek musiqasi hayotida tutgan o’rni, “Konserti”ning tahlili, Mustafo Bafoyevning “Qashqar rubobi va orkestr uchun konserti”ning ijrosi ustida ishlash, Konsertni ijro qilish uchun kerak bo’ladigan mashqlar hamda konsertda foydalanilgan musiqiy atamalarning izohi, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

“Konsert” asarini tahlil qilish jarayonida ushbu asarni ijro qilish uchun kerakli ko’nikmalarni o’zlashtirish haqidagi ma’lumotlar o’rganilgan.

Asarning ijrochiligi bo’yicha mashg’ulotlarni tashkil qilishda ma’ruzalar matni sifatida, shuningdek, ta’lim muassasalarida ijrochilik bo’yicha o’quv-uslubiy ishlarini olib borish jarayonida hamda konsert ijrochiligini tashkil qilishda mazkur materiallaridan keng foydalanish mumkin.

Axmedov Abbas Azimovichning ushbu bitiruv malakaviy ishini mazmunan puxta va talab darajasida yaratilganligini inobatga olgan holda ijobiy baholayman.

**“Xalq cholg’ularida ijrochilik”
kafedrasiprofessor v.b.**

B.Mirpayazov